

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“QUNDUZ BILAN YULDUZ” DOSTONIDA QO‘LLANGAN ORNITONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xolmirzayev Jurabek Muminovich

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, doktorant.

e-mail: jorabekxolmirzayev577@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-2669-6137>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Ergash Jumanbulbul o‘g‘li variantidagi “Qunduz bilan Yulduz” dostoni tilida qo‘llangan ornitonimlarning leksik semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida doston matnida uchraydigan qush nomlari aniqlanib, ularning leksik-semantik guruhlari, denotativ va konnotativ ma‘nolari, matndagi funksional-uslubiy vazifalari hamda obraz yaratishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ornitonimlarning xalqning milliy tafakkuri, ovchilik madaniyati, estetik qarashlari va mifopoetik tasavvurlari bilan bog‘liq lingvomadaniy mazmuni yoritiladi. Tahlillar natijasida dostonda qo‘llangan shunqor, lochin, qirg‘iy, tuyg‘un, bulbul, turna, g‘oz, tovu va so‘na kabi ornitonimlar nafaqat qush nomlarini ifodalovchi nominativ birliklar, balki qahramonlarning jasorati, epcilligi, go‘zalligi, muhabbati va ruhiy kechinmalarini badiiy tasvirlashga xizmat qiluvchi muhim poetik vositalar ekani asoslab beriladi. Tadqiqotda tavsifiy, leksik-semantik, komponent, kontekstual va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: ornitonim, xalq dostoni, “Qunduz bilan Yulduz” dostoni, doston tili, leksik-semantik tahlil, lingvomadaniyat, denotativ ma‘no, konnotativ ma‘no, poetik obraz, folklor leksikasi.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРНИТОНИМОВ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ДАСТАНЕ «КУНДУЗ БИЛАН ЮЛДУЗ»

Холмирзаев Журабек Муминович

Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова, докторант.

Аннотация.

В данной статье исследуются лексико-семантические и лингвокультурологические особенности орнитонимов, употреблённых в эпосе «Кундуз билан Юлдуз» в исполнении Эргаша Жуманбулбул оглы. В ходе исследования выявлены названия птиц, встречающиеся в тексте эпоса, проанализированы денотативные и их лексико-семантические коннотативные значения, группы, функционально стилистические особенности, а также их роль в создании художественных образов. лингвокультурному Особое содержанию внимание орнитонимов, уделено отражающих национальное мировоззрение узбекского народа, традиции соколиной охоты, эстетические представления и мифопоэтические воззрения. Анализ показал, что такие орнитонимы, как shunqor, lochin, qirg‘iy, tuyg‘un, bulbul, turna, g‘oz, tovu и so‘na, выполняют не только номинативную функцию, но и служат важными художественными средствами выражения мужества, ловкости, красоты, любви, разлуки и эмоциональных переживаний персонажей. В исследовании использованы описательный, лексико-семантический, компонентный, контекстуальный и лингвокультурологический методы анализа.

Ключевые слова: орнитоним, народный эпос, «Кундуз билан Юлдуз», эпоса, лексико-семантический анализ, лингвокультурология, денотативное значение, коннотативное значение, художественный образ, фольклорная лексика.

LEXICAL-SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL FEATURES OF ORNITHONYMS USED IN THE EPIC QUNDUZ BILAN YULDUZ

Xolmirzayev Jurabek Muminovich

Samarkand State University named after Sh. Rashidov, Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the lexical-semantic and linguocultural features of ornithonyms used in the "Qunduz bilan Yulduz" epic performed by Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. The study identifies bird names occurring in the text and analyzes their lexical-semantic classification, denotative and connotative meanings, functional-stylistic roles, and

contribution to the creation of artistic imagery. Particular attention is paid to the linguocultural significance of ornithonyms in relation to the Uzbek people's worldview, hunting traditions, aesthetic values, and mythopoetic perceptions. The analysis demonstrates that ornithonyms such as shunqor, lochin, qirg'iy, tuyg'un, bulbul, turna, g'oz, tovus, and so'na function not only as lexical units denoting birds but also as important poetic devices expressing courage, agility, beauty, love, separation, and emotional experiences of the characters. The research employs descriptive, lexical-semantic, componential, contextual, and linguocultural methods of analysis.

Keywords: ornithonym, folk epic, "Qunduz bilan Yulduz", epic language, lexical-semantic analysis, linguocultural studies, denotative meaning, connotative meaning, poetic imagery, folklore lexicon.

Kirish. Xalq og'zaki ijodi namunalarida qo'llangan leksik birliklar xalqning ko'p asrlik turmush tarzi, dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy madaniyati, tabiat haqidagi tasavvurlari hamda estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim lisoniy manbalardan biridir. Ayniqsa, qahramonlik dostonlari tili lug'aviy tarkibining boyligi, obrazlilik darajasi va milliy-madaniy mazmunining kengligi bilan alohida ajralib turadi. Shu bois xalq dostonlari leksikasini tematik va leksik-semantik jihatdan tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki folklorshunoslik, lingvokulturologiya va etnolingvistika uchun ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalq dostonlari tilida ornitonimlar muhim badiiy-estetik vosita sifatida faol qo'llanadi. Qush nomlari epik matnda faqat real obyektlarni nomlash vazifasini bajarmaydi, balki qahramonlarning jasorati, epchilligi, tezkorligi, go'zalligi, ruhiy kechinmalari hamda axloqiy fazilatlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli ornitonimlar doston poetikasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali xalqning tabiatga munosabati, qadimiy tasavvurlari va milliy qadriyatlarini ham namoyon bo'ladi.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodida ayrim qushlar alohida ramziy mazmun kasb etgan. Masalan, bulbul muhabbat va sadoqat, lochin, shunqor hamda qirg'iy jasorat, epchillik va ovchilik madaniyati, turna hijron va sog'inch, tovus esa go'zallik va salobat timsoli sifatida talqin qilinadi. Ana shu ramziy ma'nolar xalq tafakkurida uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, keyinchalik xalq dostonlari poetikasining muhim komponentiga aylangan.

Ergash Jumanbulbul o'g'li variantidagi "Qunduz bilan Yulduz" dostoni ham ornitonimlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Asarda bulbul, shunqor, qirg'iy, lochin, tuyg'un, turna, g'oz, so'na, tovus kabi qush nomlari turli badiiy vazifalarda qo'llangan. Ularning bir qismi o'zining to'g'ri ma'nosida qo'llansa, ba'zilar qiyos, o'xshatish, metafora va ramziy obraz hosil qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Natijada ornitonimlar dostonning badiiy-estetik qimmatini oshirish, obrazlar tizimini boyitish hamda epik voqelikning milliy koloritini yaratishda muhim lisoniy vositaga aylanadi. Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida xalq dostonlari leksikasi, jumladan, zoonimlar yuzasidan ayrim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, "Qunduz bilan Yulduz" dostoni tilidagi ornitonimlarning leksik-semantik va lingvokulturologik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida alohida o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu mavzuning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi "Qunduz bilan Yulduz" dostoni matnida qo'llangan ornitonimlarni aniqlash, ularni leksik-semantik jihatdan tasniflash, kontekstual qo'llanish xususiyatlarini ochib berish hamda ularning badiiy va lingvokulturologik vazifalarini yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida tavsifiy, komponent tahlil, kontekstual tahlil va leksik-semantik guruhlash metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari xalq dostonlari tilining obrazlilik tizimini, milliy tafakkurning til vositalari orqali ifodalanish mexanizmlarini hamda ornitonimlarning epik matndagi funksional imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Masalan, doston tilida uchraydigan shunqor ornitonimi epik matnning eng muhim obrazli birliklaridan biridir. Lug'aviy jihatdan shunqor lochinsimon yirtqich qushlarning bir turi bo'lib, qadimdan ov qushi sifatida foydalanilgan. Turkiy xalqlar madaniyatida shunqor ovchilik san'ati, bahodirlik, hukmdorlik va zodagonlik bilan chambarchas bog'langan. Shu bois xalq og'zaki ijodida mazkur ornitonim oddiy qush nomi sifatida emas, balki milliy madaniyatning muhim ramzlaridan biri sifatida qo'llanadi. Dostonda quyidagi misol uchraydi: "...G'irko'kka mindirsang, qo'lga olg'ir shunqorni qo'ndirsang..."

Mazkur jumlada shunqor o'z ma'nosida qo'llanayotgan bo'lsa-da, uning semantik mazmuni bundan ancha kengdir. Shunqor bahodirning ovchilik mahoratini, uning jamiyatdagi yuksak mavqeini va beklik sha'nini ifodalovchi atribut vazifasini bajaradi. Qadim turkiy an'analarda ovchi qushni qo'lda tutish oddiy kishiga emas, balki hukmdor yoki bahodirlarga xos mashg'ulot hisoblangan. Shu sababli shunqor obrazi beklik, qudrat, jasorat, epchillik va nufuz semalarini mujassamlashtiradi. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaranganda, shunqor xalqning ovchilik madaniyati, harbiy tayyorgarligi va erk timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Dostonda ushbu ornitonim orqali bahodir obrazining ijtimoiy mavqei va estetik idealiga alohida urg'u berilgan.

Qirg'iy dostonida yirtqich qushlarni ifodalovchi ornitonimdir. Masalan: "Qirg'iy degan qushlar bo'lar qiyada". Mazkur misolda qirg'iy real qush nomi sifatida tilga olingan bo'lsa-da, uning qo'llanishi faqat nominativ vazifa bilan cheklanmaydi. Qirg'iy xalq tafakkurida o'tkir nigoh, tezkorlik va ovdagi mahorat timsoli hisoblanadi. Shu bois doston poetikasida u epchillik va ziyraklikni ifodalovchi ramziy obraz sifatida xizmat qiladi. Semantik jihatdan qirg'iy leksemasining asosiy integral semasi "yirtqich qush" bo'lsa, kontekstda tezlik, chaqqonlik, ovchilik, jangovar shiddat kabi differensial semalar faollashadi. Bu hol ornitonimning semantik kengayish jarayonini yaqqol ko'rsatadi.

Doston tilida uchraydigan eng poetik ornitonimlardan biri bulbul hisoblanadi: "Bulbul oshno bo'lar ochilgan gulga". Mazkur misolda bulbul real qush nomi emas, balki Sharq mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodida shakllangan an'anaviy poetik timsol sifatida qo'llangan. Sharq poetikasida bulbul doimo oshiqni, gul esa ma'shuqani ifodalaydi. Dostonda ham

mazkur ramziy model saqlanib qolgan. Bulbul ornitonimining semantik tarkibida ishq, sadoqat, go'zallik, visolga intilish va ruhiy iztirob semalari mujassamlashgan. Natijada u dostonning lirik qatlamini boyituvchi asosiy poetik vositalardan biriga aylanadi. Lingvokulturologik jihatdan bulbul Sharq xalqlari estetik tafakkurining ajralmas qismi bo'lib, insoniy muhabbatning badiiy modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Lochin dostonida bahodirning jismoniy harakati va jangovar shiddatini ifodalovchi obraz sifatida uchraydi: "Och lochinday charqillab...". Bu misolda lochin metaforik o'xshatish vositasi sifatida qo'llangan.

Qahramonning tezkorligi, keskin harakati va dushmanga tashlanishdagi shiddati lochin obrazi orqali kuchaytirilgan. Lochin ornitonimining semantik maydonida tezkorlik, epchillik, jasorat, ovchi qush va erkinlik kabi semalar faol qatnashadi. Aynan shu semalar bahodir obrazining dinamik xarakterini yaratishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi.

Dostonda estetik obraz yaratishda to'vus ornitonimidan ham foydalanilgan: "...tovusi mastday qilib...". Mazkur misolda to'vus go'zallik va salobatning poetik mezoni sifatida qo'llangan. Sharq madaniyatida to'vus hashamat, ko'rkamlik va nafislik timsolidir. Shu sababli qahramonning tashqi qiyofasi to'vushga qiyoslanishi uning estetik ideal darajasida tasvirlanayotganidan dalolat beradi. Semantik jihatdan to'vus ornitonimida go'zallik, ko'rkamlik, nazokat, hashamat va ulug'vorlik semalari mujassamlashgan.

Dostonning lirik lavhalarida turna va g'oz ornitonimlari alohida poetik yuklama bilan qo'llangan: "Otajon, ko'llarning turna, g'oi bo'l...". Mazkur misolda ushbu ornitonimlar real qush nomi emas, balki sog'inch va ayriliqning poetik ramzi sifatida ishlatilgan. Turkiy xalqlar folklorida turna uzoq safar, hijron va musofirlikni, g'oz esa poklik, osoyishtalik va vafo timsolini ifodalaydi. Shu bois mazkur kontekstda turna va g'oz ornitonimlari qahramonning ichki kechinmalarini kuchaytiruvchi lirik obraz vazifasini bajaradi. Ularning qo'llanishi dostonda emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni sezilarli darajada oshirgan.

Ko'rinadiki, doston tilidagi ornitonimlar real nomlash bilan bir qatorda obrazlilik, ramziylik va lingvomadaniy mazmunni yuzaga chiqaradi. Ular qahramonlik eposining estetik tizimida muhim semantik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

"Qunduz bilan Yulduz" dostoni tilida qo'llangan ornitonimlarning leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur birliklar epik matnda faqat qush nomlarini ifodalovchi nominativ vositalar emas, balki xalqning badiiy tafakkuri, estetik ideallari va milliy-madaniy qarashlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy birliklar hisoblanadi. Doston matnida aniqlangan shunqor, lochin, qirg'iy, tuyg'un, bulbul, turna, g'oz, to'vus, so'na kabi ornitonimlar turli semantik va uslubiy vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi.

Tahlillar natijasida yirtqich qush nomlari (shunqor, lochin, qirg'iy, tuyg'un) asosan jasorat, mardlik, epchillik, shiddat va bahodirlik konseptlarini ifodalashi, lirik mazmundagi ornitonimlar (bulbul, turna, g'oz) esa muhabbat, sadoqat, hijron va sog'inch kabi ruhiy kechinmalarni obrazli ifodalashga xizmat qilishi aniqlandi. Tovus ornitonimi esa go'zallik, salobat va nafislik timsoli sifatida qo'llanib, qahramonlarning tashqi qiyofasini estetik jihatdan tavsiflashga xizmat qiladi. Shuningdek, ornitonimlar dostonda uch asosiy semantik qatlamda namoyon bo'lgan: birinchidan, ular o'zining bevosita lug'aviy ma'nosida qo'llanadi; ikkinchidan, o'xshatish va metaforalar tarkibida qahramonlarning individual fazilatlarini ifodalaydi; uchinchidan esa xalqning ko'p asrlik madaniy tajribasi, ovchilik an'analari va tabiat haqidagi tasavvurlarini mujassamlashtirgan lingvomadaniy ramzlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu hol ornitonimlarning denotativ ma'nodan tashqari kuchli konnotativ va ramziy ma'no qatlamiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Demak, "Qunduz bilan Yulduz" dostoni tilidagi ornitonimlar epik matnning badiiy-estetik tizimini shakllantiruvchi, qahramonlar xarakterini ochuvchi hamda xalqning milliy dunyoqarashini ifodalovchi muhim leksik birliklardir. Ularni leksik-semantik va lingvokulturologik jihatdan o'rganish nafaqat doston tilining lug'aviy boyligini yoritadi, balki o'zbek xalq og'zaki ijodida qush obrazlari orqali shakllangan milliy konseptlar tizimini ham aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev M. O'zbek folklorshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2009. – 312 b.
2. Yo'ldoshev B., O'rinboyeva D. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent, 2008. – 100 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Жирмунский В. М., Зарифов Х. Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: Государственное издательство художественной литературы (ГИХЛ), 1947. – 303 с.
5. Жирмунский В. М. Тюркский героический эпос. Избранные труды. – Л.: Наука, 1974. – 728 с.
6. Bulbul taronalari. Ergash Jumanbulbul o'g'li variantlari. – Toshkent: Fan, 1972.
7. Shoabdurahmonov Sh. «Ravshan» dostoni tili haqida // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 146–172.
8. Xoliqov A. «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni leksikasining ayrim xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2002. – № 6. – B. 62–63.
9. Yo'ldosheva D. O'zbek tilida ornitonimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari haqida (monografiya). – Samarqand: SamDU nashri, 2007. – 106 b.
10. Yuldasheva D. B. O'zbek tili ornitonimlarining strukturaviy-semantik tadqiqi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2020. – 128 b.